

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURGA KIM ISM QO'YGAN

Gulmera Narziyeva

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 1-son kasb-hunar maktabi o'qituvchisi  
O'zLiDeP a'zosi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boburning ismi, Xoja Ubaydullo tomonidan Zahiriddin Muhammad ya'ni Muhammad (s.a.v) "dining tayanchi" deb nom beradi. Bobur ijodida ishq-muhabbat, hijron mavzusi salmoqli o'rinn tutadi. Uning ruboiy va g'azallarida mashuqaning go'zalligi, husn-u latofati, sharqona axloqi, noz-u karashmasi, yengil va o'ynoqi misralarda mahorat bilan aks etgan.

**Kalit so'zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun, Gulbadanbegim, podshoh, g'azallar, ixlos, Boburnoma, ism, chig'atoylar, qit'a, tuyuq.

Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoga kelgan paytlarda temuriyzodalar hukmronlik qiladigan Movarounnahr va Xuroson o'lkasida Xoja Ubaydullo Ahror (Xoja Ahror Valiy, 1404–1490)ning nufuzi nihoyatda baland edi. Shu bois, temuriy hukmdorlar o'rtasidagi ko'plab nizoli vaziyatlarni tinchlik yo'li bilan hal qilgan. Xoja Ahrorga Boburning otasi Umarshayx mirzo shu qadar ixlos qilar ediki, Xoja uni doimo "o'g'ilim" deb ardoqlar edi.

1483 yilning 14 fevralida Umarshayx mirzo xonadonida o'g'il farzand dunyoga kelgach, mirzo Xoja Ubaydulloga odam yuborib, shahzodaga ism qo'yib berishni so'raydi. Xoja chaqaloqqa Zahiriddin Muhammad, ya'ni "Muhammad (s.a.v.) dinining tayanchi" deb nom beradi.

Boburning xolavachchasi, tarixchi va davlat arbobi Mirzo Muhammad Haydar bu haqda shunday yozadi: "...bu paytda chig'atoylar ko'chmanchi hayot kechirishar, o'troq emas edi, ular Zahiriddin Muhammadni aytishga qiynalishardi, shu sababli uni Bobur deb ham atardilar. Xutba va yorliqlarda uni Zahiriddin Muhammad Bobur deb aytishdi va yozishdi. Ammo u ko'proq Bobur Podshoh nomi bilan mashhurdir". Gulbadanbegimning aytishicha, 1508 yil, Boburning vorisi Humoyun mirzo tug'ilgach, Bobur o'zini "podshoh" deb atashlari haqida farmon bergen.

Keyinchalik, Bobur o'ziga ism qo'yanan piri komil (Ubaydullo Ahror)ning "Risolai Voldiyya" asarini turkiy tilga nazmiy (she'riy) tarjima qildi. Bu bilan, Bobur xoja oldidagi ulkan ma'naviy qarzni ado etgan bo'lsa, ajab emas.

Bu haqda u o'zining "Boburnoma" asarida shunday yozadi: "Juma kuni, oyning yigirma uchinchisida badanimda isitma zohir bo'ldi (1528 yili Hindistonning Gvaliyar viloyatida – A.Z.). Shunday bo'ldiki, juma namozini masjidda qiynalib o'qidim. Ertasiga peshin namozini ehtiyoj yuzasidan kitobxonada biroz muddatdan so'ng o'qidim. Indini, yakshanba kuni yana isitmam chiqdi, ozroq titradim. Seshanba kechasi, safar oyining yigirma ettinchisida hazrat Xoja Ubaydullohning "Voldiyya" risolasini nazm qilmoq fikri ko'nglimga keldi.

Hazratning ruhiga iltijo qilib, ko'nglimdan kechirdimki: agar bu manzuma hazratga ma'qul bo'lса, ... bu xastalikdan forig' bo'lсаm, nazmim qabul qilinganiga shu dalil bo'lardi. Ushbu niyat bilan... risolani nazm etishga kirishdim. O'sha kechaning o'zida o'n uch bayt yozdim. Xuddi atayin kelishilgandek, har kuni o'n baytdan kam bitilmas edi.

Darvoqe, bir kungina bu ish qilinmadи. O'tgan yili va balki har gal bu xastalikka chalinganimda, aqalli bir oy, qirq kun og'rirdim. Tangri inoyati bilan, hazratning himmatidan, payshanba kuni, oyning yigirma to'qqizinchisida birozgina isitmaladim, keyin mutlaqo tuzalib ketdim. Shanba kuni, rabi ul-avval oyining sakkizinchisida risola so'zlarini she'rga solish nihoyasiga etdi".

Bobur shunday bir niyat bilan Xoja Ahrorning "Voldiya" risolasini turkiy nazmga krita boshlaydi va tarjima oxiriga etmay turib kasallikdan shifo topadi.

Asar esa bir oyyu qirq kunda turkiy nazmiy shakl hosil qiladi. Bobur "Voldiya" risolasining boshlang'ich qismida Xoja Ahrorni shunday ta'riflaydi:

Hazrati Xoja Ubaydullohdin,  
Eshit ul sirri Xudoogohdin,  
Xojalar xojasi ul Xoja Ubayd,  
Xodimu chokari Shibliyu Junayd.  
Holatu martabasi zohirdur,  
Vasfu ta'rifida til qosirdur

Bobur 18—19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yoza boshlagan. Uning „Topmadim“ radifli g'azali va „Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi“ misrasi bilan boshlanuvchi ruboysi o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liq.

Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Bobur ijodida, xususan, she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dildildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat, yoru diyor soginchi va visol ilinji, takdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi.

Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o'rн tutadi. Uning gazal va ruboilarida, tuyuq va masnaviyalarida ma'shuqaning maftunkor go'zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi, nozu karashmasi yengil va o'ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

Boburning uz she'riy asarlarini to'plab, devon holiga keltirgan sanani ko'rsatuvchi aniq tarixiy ma'lumotlar ma'lum emas. Ammo „Boburnoma“ning 1518—19-yillar voqealari bayoniga bag'ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandgayuborganligi to'g'risida so'z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan.

Hozirda uning 119 g'azali, bir masnu she'ri, 209 ruboysi, 10 dan optiq tuyuq va qit'alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o'rн olgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xoja Ahrorning “Voldiyya” asari,
2. Boburning “Boburnoma” asari
3. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani.